

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

AVGUST, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-259-6

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиақбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ
CBT.....7-11

Mamadaliyeva Gulhayo

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI
UNING ISH KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI 12-16

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV..... 17-19

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI
QIYOSIY FARQLAR..... 20-23

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI 24-25

Xasanova Nargiza

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA 26-29

Rustamova Nigora

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI 30-32

Xalilov Baxodir

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"
TASHKILOTI FAOLİYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) 33-37

Норов Шухрат

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) 38-41

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) 42-43

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH
METODIKASI 44-47

Abduraimova Nigora

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI 48-51

Sidiqov Jasurbek

IJTIMOY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR..... 52-56

Nematova Dilnoza

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 57-63

Axmedova O'g'ilshod

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI 64-66

<i>Abduraimova Nigora</i> TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i> MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i> TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i> INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
FALSAFA FANLARI	
<i>Gafurova Munajat</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i> ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI	93-98
FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i> O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i> IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i> CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuza</i> ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida).....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i> "MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i> "DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i> TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIKMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbonova Aziza</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING AHAMIYATI	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

<i>Qosimova Malika</i> LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI	137-140
<i>Ayimbetova Damekhan</i> ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA OBRAZLAR TIZIMI	141-145
<i>Yo'ldasheva Mahliyo</i> "MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	146-149
<i>YURIDIK FANLARI</i>	
<i>G'ofurov Ramzbek</i> DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI	150-154
<i>Turdibaeva Mukhaddas</i> JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES	155-160
<i>Gafurova Shoir</i> ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI	161-165
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RSIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR	166-169
<i>Babajanov Farrux</i> IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS ETTIRISH	170-175
<i>PEDAGOGIKA FANLARI</i>	
<i>Нуриллаева Угулхон</i> ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ	176-181
<i>Tursinova Zoxida</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	182-191
<i>Babayeva Shahnoza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI	192-194
<i>Rasulova Barnoxon</i> KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV INNOVATSION BAHOLASH USULLARI	195-199
<i>Zokirjonov Akramjon</i> O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI	200-202
<i>Baratova Yulduz</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI	203-206

Sattoriy Shohruh

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI 207-210

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza

AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN..... 211-213

Мамадалиев Хасанхон

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)

И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ..... 214-218

Maxmudbekov Boburmirzo

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA

OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH..... 219-221

PSIXOLOGIYA FANLARI

Усманова Лилия

ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ

ТРАДИЦИИ 222-225

SIYOSIY FANLAR

Sa'diyev Bahodir

ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI..... 226-231

ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA OBRAZLAR TIZIMI

Ayimbetova Damekhan Maksetbay kizi

Qoraqalpoq Davlat Universiteti tayanch doktoranti,

E-mail: danyaaimbetova@gmail.com

Tel: +998913759827

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-8428-8257>

Nukus, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr ingliz she'riyatining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Ted Xyuz ijodida animalistik obrazlarning poetik-falsafiy funksiyalari tahlil qilinadi. Shoir hayvon timsollarini oddiy realistik detal sifatida emas, balki inson ruhiyati, ekzistensial iztiroblari va tabiat bilan bog'liq murakkab munosabatlarini ifoda etuvchi ramziy vosita sifatida tasvirlagan. Tadqiqotda Xyuzning she'riy evolyutsiyasi davomida hayvon obrazlarining talqini va ularning badiiy-falsafiy yuklamasi qanday o'zgarib borganiga e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, "Crow" to'plamidan boshlab hayvon timsollari orqali shoir insoniyat, ma'naviyat, ruhiyat va ekologik muammolarga badiiy yondashuvini chuqurlashtirgani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Ted Xyuz, animalistik obraz, ingliz poeziyasi, antropomorfizm, ekzistensializm, ekologik motivlar, "Crow".

THE STUDY OF TED HUGHES'S WORK IN LITERARY SCHOLARSHIP: HIS ANIMAL POETRY AND IMAGERY SYSTEM

Ayimbetova Damekhan Maksetbay kizi

PhD researcher at Karakalpak State University

Annotation. This article explores the poetic and philosophical functions of animal imagery in the works of Ted Hughes, one of the major figures in 20th-century English poetry. Rather than treating animals as mere realistic elements, Hughes elevates them to symbolic carriers of human emotion, existential anxiety, and the complex relationship between humanity and nature. The study focuses on how the interpretation and function of animal images evolved throughout Hughes's career, particularly from the "Crow" collection onward, where these images acquire mythopoetic and metaphysical dimensions, reflecting the poet's deep philosophical inquiry into nature, spirituality, and the human condition.

Key words: Ted Hughes, animal imagery, English poetry, anthropomorphism, existentialism, ecological motifs, "Crow".

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-33>

XX asr ingliz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Ted Xyuz XX asr Britaniya she'riyatining yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin RAF safida xizmat qilgan T.Xyuz keyinchalik Kembrij universitetida arxeologiya va antropologiya fanlarini o'rganib, mifologiya va folklor bilan yaqindan tanishdi. 1956-yilda u Amerikalik shoir Sylvia Plath bilan turmush qurgan va shu yil o'zining ilk she'rlar to'plami *The Hawk in the Rain* (1957) bilan chiqdi. Bu kitob Poeziya Markazi tanlovida birinchi o'rinni qo'lga kiritib, T.Xyuzning xalqaro miqyosdagi shoir sifatida mavqeini mustahkamladi. Keyingi yillarda uning *Lupercal* (1960), *Crow* (1970), *Selected Poems* (1982) va *Birthday Letters* (1998) kabi to'plamlari nashr etildi [8]. 1984-yilda T.Xyuz Buyuk Britaniyaning rasmiy Shoiri (Poet Laureate) etib tayinlandi va bu lavozimni 1998-yilgacha egalladi [8]. Uning ijodi uchun Order of Merit kabi yuqori unvonlar ham berilgan.

Ted Xyuz adabiy jamoatchilikda ko'pincha "animalistik shoir" sifatida nom qozongan. Chunki u o'zining boy she'riy merosida animalistik obrazlarni markaziy poetik vosita darajasiga ko'targan holda, ular orqali chuqur falsafiy mazmun kasb etuvchi mavzularni yoritgan. Olimlarning ta'kidlashicha, T.Xyuz hayvonlar olamidani material sifatida foydalanib, inson va tabiat, yovvoyilik va ma'naviyat orasidagi chegaralarni badiiy jihatdan bog'lashga intilgan. Xususan, M.Dickie qayd etishicha[4; 51-65b.], T.Xyuzning ijodiy evolyutsiyasida 1970-yili e'lon qilingan "Crow" to'plamidan boshlab animalistik obrazlar realizmdan mifologik va ramziy talqinga o'tadi – shoir endi hayvonlarni oddiy biologik mavjudot emas, balki inson hayoti va ruhiy olamining timsollari sifatida tasavvur qila boshlaydi. Bu siljish T.Xyuz poeziyasining kengroq poetik strategiyasini aks ettiradi: animalistik obrazlari yordamida u tabiat va ruhiyat birligini ifoda etuvchi falsafiy konsepsiyani ilgari suradi, ya'ni insoniy va hayvoniy dunyo, moddiy va ma'naviy olam o'rtasidagi birlik g'oyasini poetik shaklda tadqiq qiladi.

Adabiyotshunoslar T.Xyuz she'rlaridagi animalistik obrazlar mavhum falsafiy g'oyalarni ifodalashga xizmat qilishini alohida ta'kidlashadi. Masalan, P.E.Strauss T.Xyuzni hatto "metafizik shoir" deb atagan va uning ijodini Uilyam Bleyk an'analari bilan solishtirgan edi[11; 45-63b.]. Darhaqiqat, T.Xyuz animalistik timsollar orqali hayot va o'lim, yovuzlik va ezgulik, tabiat va jamiyat kabi muhim falsafiy muammolarni yoritishga intilgan. Tadqiqotlarga ko'ra, shoir animalistik obrazlariga axloqiy-didaktik yuklama ham berib, ular vositasida odamzod uchun muhim saboq berishga harakat qilgan. Xususan, Zheng Dongxia ta'kidlaydiki[5; 98-101b.], T.Xyuz hayvonlar vositasida insoniyatga murojat etib, ularga axloqiy xulosa chiqarishga undovchi ma'no beradi va hech bir shoir T.Xyuzchalik hayvonlarni poeziyada haqqoniy va aniq tasvirlay olmagan. Shu bois T.Xyuz she'riyati animalistik obraz zahirida yotuvchi poetik-falsafiy funksiyalarni chuqur anglash imkonini beradi: timsollari faqat tasviriy vosita bo'lib qolmay, balki insoniyatning ruhiy-ahloqiy ahvoli haqidagi falsafiy mushohadalar manbaiga aylanadi.

Ted Xyuz animalistik obrazlarini nafaqat falsafiy ramz, balki inson kechinmalari va ichki iztiroblarni ifodalash vositasi sifatida ham mohirona qo'llagan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, T.Xyuz ko'plab she'rlarida hayvon qahramonlar orqali zamonaviy insonning ruhiy holatini, xususan begonalashuv va ekzistensial iztirob tuyg'ularini aks ettirgan. Ba'zi adabiy tahlillarda shoirning hayvon qahramonlari "begonalashgan o'zlik"ni ifodalovchi timsollar sifatida talqin etilad[2]. Boshqacha aytganda, T.Xyuz animalistik obraz orqali insonning o'z tabiatidan yiroqlashuvi, yolg'izligi va ichki ajralganlik hissinin badiiy ifoda etgan.

Shu jihatdan, T.Xyuz poetikasida antropomorfizm – hayvonlarga insoniy sifat va xususiyatlar berish usuli – alohida ahamiyatga ega. A.Bukhari tadqiqotida ta'kidlanishicha[1; 55-70b.], shoirning aynan ana shu antropomorfik hayvon qahramonlari o'ziga xos tarzda insoniyatning ichki iztiroblari va begonalashuvini aks ettiradi, ya'ni hayvon qiyofasida insonning ruhiy holati va ekzistensial tashvishlari gavdalanadi. Darhaqiqat, T.Xyuz hayvonlarning xulq-atvorini, his-tuyg'ularini insonga xos tarzda tasvirlash orqali o'quvchida kuchli ruhiy rezonans hosil qiladi. Bunday uslub hayvon obraziga yuqori ramziy-ma'naviy yuk berib, she'riy mazmunni yanada teranlashtiradi.

Natijada, T.Xyuzning hayvonlarga oid she'rlari o'quvchi ongida insoniy tajriba bilan hayvoniy olam tutashuvini hissiy darajada anglash imkonini beradi. Masalan, shoirning "The

Thought-Fox" she'rida tulki obrazi bevosita ijodiy tafakkur jarayonining metaforasi sifatida gavdalantiriladi – tunda paydo bo'lib kelayotgan tulki shoirning ongiga kirib kelayotgan she'riy ilhom timsoli bo'lib, bu misolda hayvon obrazi orqali insonning ijodiy kechinmasi mahorat bilan ifodalangan. Xuddi shuningdek, T.Xyuzning boshqa ko'plab she'rlarida yirtqich qushlar, bo'rilar yoki tulkilar odamzodning ibtidoiy instinktlarini va ruhiy kurashlarini ifodalovchi timsollarga aylanadi. Tadqiqotchi M.Dickie qayd etganidek[4; 51-65b.], T.Xyuz ayniqsa "Crow" she'riy turkumida animalistik obrazni ekzistensial kurash va o'zgarishlar ramzi darajasiga ko'targan. Hayvonlar endi uning she'rlarida shunchaki tabiat manzarasining bir qismi emas, balki inson hayotining dahshat va umidlari mujassam etilgan arxetiplar bo'lib xizmat qiladi. Bu usul T.Xyuzga inson ruhiyatini tahlil etishda yangi badiiy yo'l ochgan bo'lib, o'quvchini o'z hayoti va ongining tub qatmanlarida yotgan hayvoniy instinktlar haqida mulohaza yuritishga undaydi.

T.Xyuz she'riyati tahlilchilari uning ijodida ekologik motivlar va tabiatga munosabatdagi tanqidiy ruh yuksak o'rin tutishini qayd etadilar[10; 160-181-b.]. Shoir animalistik obrazlar orqali insoniyatning tabiatga nisbatan tutumini muhokama qiladi, ko'pincha antropotsentrizmni (inson markazchilligini) keskin tanqid ostiga oladi. Masalan, R.Ingelbien T.Xyuz poeziyasini tahlil qilib[6; 627-658b.], undagi animalistik obrazlar biotsentrik dunyoqarashni aks ettirishini ta'kidlaydi – ya'ni, T.Xyuz uchun tabiat va undagi barcha jonzorlar o'zaro uzviy bog'liq hamda teng ahamiyatga ega. Bunday qarash zahirida shoirning insoniyatni tabiatning bir qismi sifatida ko'rish g'oyasi yotadi. T.Xyuz ko'pincha she'rlarida hayvonlar timsolida inson faoliyatining tabiiy muhitga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini fosh etadi, o'quvchini tabiatga munosabatini qayta ko'rib chiqishga chorlaydi. Shu bois T.Xyuzning hayvonlarga bag'ishlangan she'riy to'plamlari ko'pincha eko-tanqidiy ruh bilan sug'orilgan bo'lib, unda inson va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlar badiiy tahlil etiladi.

T.Xyuzning tabiat tasvirlarida e'tiborni tortuvchi jihat – bu go'zallik va shafqatsizlikning uyg'unligidir. Adabiyotshunos N.Corcoran fikriga ko'ra[3], T.Xyuz asarlarida tabiatning betakror go'zalligi bilan bir qatorda uning ichki yovvoyi, zo'ravonlikka moyil jihati ham ochib beriladi. Shoirning ba'zi she'rlarida yirtqich hayvonlar go'yoki "odamlardan ham insoniyroq" qiyofada tasvirlanadi – ya'ni, ulardagi shafqatsizlik va hayot uchun kurash insoniyatnikidan ham ortiqroq ochiq namoyon etiladi. Bunday tasvirlar orqali T.Xyuz o'quvchini tabiatning qorong'i, vahshiy qirralari bilan yuzlashtiradi. Hayvonlar hayoti uchun kurash sahnalari, yirtqichlik va yovvoyi instinktlarning jo'sh urishi insoniyatning o'z tabiatidagi ibtidoiy qudratni aks ettirib, tabiat va inson ontologik jihatdan yaxlit va ajralmas ekanini eslatadi. T.Xyuzning o'zi ham nazarda tutadiki, tabiatning go'zalligi va vahshiylikni birdek tan olish zarur – faqat shundagina inson o'z mavjudligining haqiqiy qiyofasini anglay oladi.

Adabiyotshunoslar Ted Xyuz ijodini tahlil qilar ekanlar, uning poetik evolyutsiyasi davomida mavzu va uslub jihatidan sezilarli o'zgarishlar yuz berganini qayd etadilar. Xususan, animalistik obrazlarning talqini va funksiyasi T.Xyuzning ijodiy bosqichlariga qarab rivojlanib, yangi qirralarni kasb etgan. L.M.Scigaj T.Xyuz she'riyatini shartli ravishda uch bosqichga ajratib o'rganadi[9]: birinchi bosqich (1950-yillar) da shoir she'riy til va shakl izlanishlari bilan band bo'lib, animalistik obrazlari asosan badiiy uslubning bir qismi sifatida yuzaga

chiqadi; ikkinchi bosqich (1960-yillar)da T.Xyuz mifologiya va irfoniy mavzularga murojaat qilib, animalistik timsollariga afsonaviy ramz sifatida yondasha boshlaydi; uchinchi bosqich (1970–80-yillar)ga kelib esa uning poeziyasida tabiat manzaralari va sirli-surreal motivlar kuchayadi, animalistik obrazlar yanada mifopoetik mazmun bilan boyiydi. Demak, shoir ijodining so'nggi davrlarida hayvonlar faqat realistik detal sifatidagina emas, balki mavjudlikning jumboqli va sehrli qirralarini ifodalovchi badiiy timsolga aylangan.

Adabiy tanqidchi P.Douglass ta'kidlaganidek [7], T.Xyuz ijodiy izlanishlarining keyingi bosqichlarida animalistik obrazlar nafaqat shaxsiy yoki falsafiy ma'no bilan, balki ijtimoiy va milliy identifikatsiya kabi kengroq mavzular bilan ham bog'lanib boradi. Shoirning ijodining keyingi davr she'rlarida animalistik obraz ba'zan millat ruhiyatini ifodalovchi timsol darajasiga ko'tariladi – masalan, qirg'iy yoki bo'ri obrazi butun jamiyatning ruhiy holatini, tarixiy tajribasini aks ettiruvchi ma'noga ega bo'lib ketadi. Shunday qilib, T.Xyuz o'z ijodiy rivojlanishi davomida animalistik obrazlari funksional ko'lamini kengaytirib borgan: avval naturalistik detal bo'lgan narsa keyinchalik metafizik timsolga, so'ngra esa hatto jamiyat ongi va ekologik tafakkurning ko'zgusiga aylangan. Xullas, Ted Xyuzning hayvoniy animalistik tizimi statik hodisa bo'lmay, balki davrlar osha takomillashib, poetik vazifasi o'zgarib borgan tirik tizimdir. Shu sababli, bugungi kunda T.Xyuz poeziyasini tahlil qilishda uning turli davrlardagi animalistik obrazlarini solishtirish, ularning poetik funksiyasidagi o'zgarishlarni kuzatish alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Xulosa qilib aytganda, Ted Xyuzning animalistik she'riyati zamonaviy adabiyotda betakror hodisa bo'lib, unda animalistik obrazlari orqali inson va olam haqidagi teran mushohadalar olib boriladi. Bu she'riyat go'zallik va vahshiylikni, insoniylik va hayvoniylikni o'zida birlashtirgan holda, o'quvchini borliqning murakkab va ziddiyatli mohiyatini anglashga chorlaydi. Shu sababli T.Xyuzning hayvon obrazlari tizimi ko'plab adabiy tadqiqotlarda haligacha dolzarb tahlil obyekti bo'lib kelmoqda – uning poetik novatori va falsafiy teranligi bugungi adabiy tanqid va ilmiy izlanishlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bukhari, A. (2020). Transcendentalism: The Anatomization of Ted Hughes' Works. *Journal of Communication and Cultural Trends*, 2(2), 55–70.
2. Chauhan, P. (2023). Mimicking Humanity: The Use of Anthropomorphism in Ted Hughes' Nature Poetry.
3. Corcoran, N. (2014). *English Poetry Since 1940*. Routledge.
4. Dickie, M. (1983). Ted Hughes: The Double Voice. *Contemporary Literature*, 24(1), 51–65.
5. Dongxia, Z. (2021). A Literature Review on Ted Hughes' Poetry. *Studies in Literature and Language*, 23(1), 98–101.
6. Ingelbien, R. (1999). Mapping the Misreadings: Ted Hughes, Seamus Heaney, and Nationhood. *Contemporary Literature*, 40(4), 627–658.
7. Paulin, T. (1992). *Minotaur: Poetry and the Nation State*. Harvard University Press.
8. Poetry Foundation. (n.d.). Ted Hughes. <https://www.poetryfoundation.org/poets/ted-hughes>
9. Scigaj, M. L. (1986). *The Poetry of Ted Hughes: Form and Imagination*. University of Iowa Press.

10. Scigaj, M. L. (1994). Ted Hughes and Ecology: A Biocentric Vision. The Challenge of Ted Hughes, (5), 160–181.
11. Strauss, P. E. (1972). The Poetry of Ted Hughes. Theoria: A Journal of Social and Political Theory, (39), 45–63.

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM
ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.